

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA 4K MODULI ASOSIDA TA'LIM OLISHNING AFZALLIKLARI

*Laylo Nurmatova Nuraliyevna*  
*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani*  
*27-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarini o'qitishda axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati hamda boshlang'ich sinflarda 4K moduli asosida ta'lim olishning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, kompyuter texnologiyalari, multimedia, tarmoqli axborot texnologiyalari, 4K moduli, kollaboratsiya, kommunikativlik.

Boshlang'ich ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini belgilash, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalami qo'llashning eng muhim ko'satkichlaridan hisoblanadi. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlariga ta'lim muassasasi umumiy faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlash lozim. Boshlang'ich ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlari zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tarmoqli axborot texnologiyalaridan foydalanishni bildiradi. Bunday vositalarni qo'llashda umumta'lim maktab va oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining samaraligini oshirish uchun yangi imkoniyat ochib beradi. Kompyuter o'quv manbalarini kengaytirib beradi, ya'ni turli multimediali darsliklar, elektron kitoblar va boshqalaridan foydalanish imkoniyati keng tarqalmoqda. Shularni inobatga olgan holda bugungi kunda axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yadi, shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinflardagi ta'limda ham ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasidan ta'lim faoliyatini muhitining axborotlashtirishini talab qiladi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili va rus tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o'rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun uchta variantlarda berilgan grammatika, orfografik mavzular bo'yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ona tili darslarida insho yozishda taqdimotlardan foydalanish qulay. U orqali mavzuning savol va rejalarini tuzish, qiyin so'zlarni topish osonlashadi. Insho rasm asosida yozilayotgan bo'lsa, mavzuga doir rasmni ekranda namoyish etish imkonini beradi. 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovoqli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materialini bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo'llanma bo'yicha ta'lim jarayonini differentsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o'qitish bo'yicha tematik rejalashtirishni ishlab chiqishda rejalashtirishga tegishli elektron mavzular va bo'limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim. Tabiiy fanlar darslarida ham barcha mavzularda video-rolklar, taqdimotlar, testlar, animatsion multimedialarni qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan, yurtimiz tabiati, suv havzalari, hayvonot dunyosi, dengizlar, okeanlar hamma mavzuni animatsion slaydlarda aks ettirish mumkin. Animatsiya orqali taqdimot nafaqat yorqin hissiyotlarni va bir vaqtning o'zida ilmiy imidjni, balki o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. O'quvchilar ongigada mavzu bo'yicha tushunchalarni shakllantirib, xotirasida yaxshi saqlashini taminlaydi. Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinalardan foydalanish mumkin. Texnologiya va tasviriy san'at darslarida ham slaydlardan unumli foydalansa bo'ladi. Masalan, rassomlar, rasmlar namunalari, loyiha namunalari, loyiha bosqichlari, qo'l mehnati namunalari va shu kabi mavzularni slayd yordamida namoyish qilish mumkin. Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinf gacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa

o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterining o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

4K yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

**Kollaboratsiya:** Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

**Kommunikativlik:** O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.

**Kreativ fikrlash:** O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

**Kritik (tanqidiy) fikrlash:** Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan davlatlar ta'limida o'quvchilarda "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarga alohida urg'u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti.

**Xulosa:** Yangi model yaxshi ishlashi uchun qanday sharoit kerak?

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo'llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg'ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo'q deb aytish noto'g'ri. Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda respublikadan yig'ilgan 300 dan ortiq trener o'qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o'qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi. Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad

ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tayloqov. N.I., Elektron darsliklarning oddiy darsliklardan afzalligi nimada? Fizika matematika va informatika.-2009. -№ 53-40 b.
2. Begimqulov.U.SH. Pedagogik ta'limda axborat texnologiyalaridan foydalanish muammolari va istiqbollari. "Info. Kom Uz" J. № 4, 2006 y.
3. Rasulov O. Zamonaviy elektron darsliklarning didaktik xususiyatlari Kasb-hunar ta'limi. №5. 2005 y.
4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.
5. www.ziyonet.uz.